Mamadaliyeva Feruza Asrorovna (Toshkent davlat Agrar universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi; ORCID: 0009-0004-7404-1419)

MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY MEROSIDA SHAXS MAS'ULIYATI VA UNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma'naviy merosida shaxs mas'uliyati g'oyalarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ijtimoiy asoslari tahlil qilinadi. Muallif Forobiy, Ibn Sino kabi allomalar asarlarida inson halolligi, adolat, burch va ijtimoiy mas'uliyat masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganadi.*

Kalit so'zlar: *korrupsiya, shaxs mas'uliyati, ma'naviyat, Markaziy Osiyo mutafakkirlari, Forobiy, Ibn Sino, axloqiy qadriyatlar, halollik, adolat, falsafa.*

Мамадалиева Феруза Асроровна (доцент Ташкентского государственного аграрного университета, доктора философии (PhD) по философским наукам, независимый исследователь Ташкентского государственного экономического университета; ORCID: 0009-0004-7404-1419)

ЛИЧНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ МЫСЛИТЕЛЕЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ В БОРЬБЕ С КОРРУПЦИЕЙ

Аннотация. *В данной статье анализируются социальные основы идей личной ответственности в духовном наследии мыслителей Центральной Азии в контексте борьбы с коррупцией. Автор рассматривает труды таких выдающихся ученых, как Аль-Фараби и Ибн Сина, в которых глубоко освещаются вопросы человеческой честности, справедливости, долга и социальной ответственности.*

Ключевые слова: *коррупция, личная ответственность, духовность, мыслители Центральной Азии, Аль-Фараби, Ибн Сина, нравственные ценности, честность, справедливость, философия.*

Mamadaliyeva Feruza Asrorovna (Associate Professor at Tashkent State Agrarian University Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences Independent Researcher at Tashkent State University of Economics; ORCID: 0009-0004-7404-1419)

PERSONAL RESPONSIBILITY IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF CENTRAL ASIAN THINKERS AND ITS SIGNIFICANCE IN COMBATING CORRUPTION

Annotation. *This article analyzes the social foundations of the ideas of personal responsibility in the spiritual heritage of Central Asian thinkers in the context of combating corruption. The author examines the works of such prominent scholars as Al-Farabi and Ibn Sina, in which the issues of human honesty, justice, duty, and social responsibility are deeply explored.*

Keywords: *corruption, personal responsibility, spirituality, Central Asian thinkers, Al-Farabi, Ibn Sina, moral values, honesty, justice, philosophy.*

Kirish. Korrupsiya – bu shaxsning o'z xizmat yoki lavozim vakolatlaridan shaxsiy manfaat yoki boshqa biror kishining foydasini ko'zlab, qonunga zid tarzda moddiy yoki nomoddiy naf olishidir. Shu bilan birga, bunday nafni noqonuniy yo'l bilan berish ham korrupsiya hisoblanadi. Bu hodisa fuqaro va davlat vakili o'rtasidagi ma'muriy munosabatlarning asl mohiyatini buzadi hamda jamiyat va davlat hayotida salbiy oqibatlarga olib keladi. Jamiyat taraqqiyoti, davlat boshqaruvi samaradorligi va fuqarolik jamiyatining barqarorligi insonning ma'naviy va axloqiy qadriyatlariga bevosita bog'liqdir.

Adabiyotlar tahlili. Korrupsiya, shaxs mas'uliyati va axloqiy qadriyatlar g'oyalari va konseptual fikrlari ifodalangan merosini o'rganish xususan, Markaziy Osiy mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino ma'naviy merosida, xorijlik olimlar Elliott, Kimberly Ann [16], Lawore B [17], Arendt H. [13] O'zbekistonlik olimlarimiz M.Xayrullayev [15], H.Aliqulov [9], Muxtorov A., Aliyev B. [5] Norov T. [6] Ochilova B .[7] shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-iyundagi PQ–6155- qarorida korrupsiyaga qarshi kurashda "halollik va mas'uliyat madaniyatini shakllantirish" [1], Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi [2], O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi [3], O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-qonuni [4] ma'rifatli jamiyatining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tanqidiy qarashlari, jamiyat taraqqiyotiga yo'naltirilgan konseptual fikrlari mazmuni mustaqil yondoshuv asosida o'rganilgan.

Tahlil va natijalar. Forobiy yirik ma'rifatparvar olim, u umr bo'yiilm axtardi, bilim o'rgandi. Forobiyning o'z iborasi bilan aytganda, "bo'shab qolgan diyorlar, odamlar so'zlaridan meva terib yurdi" [8;10-b.]. Uning "Fozil odamlar shahri" [8] asari ijtimoiy-falsafiy tafakkurning yuksak namunasi bo'lib, unda shaxs mas'uliyati, axloqiy komillik va adolat tushunchalari jamiyat barqarorligining asosiy omili sifatida talqin etiladi. Jamiyatning rivoji insonlarning axloqiy yetukligiga bevosita bog'liqligini va alloma qa-

rashlarida "Har bir inson o'zini mukammallashtirish orqali jamiyatning mukammalligiga hissa qo'shadi", [8;44-b.] deya ta'kidlagan.

Forobiy fikricha, "fozil shahar" tushunchasini ilgari surib, davlatni axloqiy tamoyillar asosida boshqaruvchi rahbarni ideal jamiyatning markaziy shaxsi sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, bunday rahbar:

- aqliy jihatdan yetuk;
- axloqiy pok;
- adolatni eng oliy qadriyat deb biluvchi shaxs bo'lishi kerak [8].

Bunday rahbar jamiyatda halollik, adolat va fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlaydi. Aksincha, nodon yoki manfaatparast rahbar davlatni "nofazilatli jamiyat" yo'liga olib kiradi, bu esa korrupsiyaning ildiz otishiga sabab bo'ladi.

Korrupsiya Forobiy falsafasida, bu insonning fozil tabiatidan chekinishi, ya'ni "nafs va manfaat qulligiga tushish" holatidir. Bunday shaxs jamiyatga zarar yetkazadi, chunki u umumiy adolat mezonlarini buzadi.

Forobiy o'z asarida adolat eng oliy fazilat sifatida ko'riladi. Unga ko'ra, adolat bu faqat huquqiy kategoriya emas, balki jamiyatdagi barcha munosabatlarning axloqiy mezonidir. Insonning mas'uliyati ham ana shu adolat tamoyiliga asoslanishi kerak. Agar inson o'z xatti-harakatlari oqibatini tushunmasa yoki ularni oqlashga urinib, adolatni buzsa, u nafaqat o'zini, balki butun jamiyatni ma'naviy inqirozga olib kiradi. Adolat yaxshilik, donolik, saxiylik, shijoat, zehnlilik va shunga o'xshash tushunchalar bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Forobiyning fikricha, yaxshilik insonning 5 ta ruhiy quvvatiga tegishlidir. Bular: aqliy nazariy, aqliy amaliy, intiluvchi, tasavvur va his qilish qobiliyatidir [8].

Forobiy "fozil inson"ni nafaqat bilimli, balki axloqan barkamol shaxs sifatida tasvirlaydi. Unga ko'ra, har bir inson o'z nafsini boshqarish, manfaatni emas, foydalilikni tanlash, adolatni ustuvor qo'yish orqali jamiyatga xizmat qilishi lozim. Bu g'oya bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashning eng muhim falsafiy asosi sifatida talqin qilinishi mumkin: insonning o'zini anglash, vijdonini uyg'otish va ijtimoiy manfaatni shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish.

Forobiy qarashlari bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning ta'kidlashicha, davlatning kuchi qonunlarda emas, balki fuqarolarning axloqiy fazilatlaridadir. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashda:

–halollik madaniyatini shakllantirish;

–yoshlar ongi va qalbida fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlash;

–rahbarlarda axloqiy yetuklikni tarbiyalash eng samarali mexanizm sifatida ko'riladi [8].

Markaziy Osiyo Sharq falsafasida Ibn Sino ma'nviy merosida nafaqat inson haqida, balki aqliy va axloqiy yetuklik masalalari, shuningdek, inson va jamiyat o'rtasidagi axloqiy muvozanat jamiyat barqarorligining asosiy omili sifatida o'rganiladi [10]. Mutafakkirning fikricha, insonning xulqi va irodasi jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarning ma'naviy poydevorini tashkil etadi.

Alloma o'z asarlarida insonni aql, vijdon va halollik tamoyillari orqali boshqariladigan mavjudot sifatida ko'radi. Shu bois shaxs mas'uliyati nafaqat huquqiy majburiyat, balki axloqiy ongning faol holati sifatida baholanadi. Ibn Sino qarashlariga ko'ra, insonning haqiqiy kamoloti uning nafsini boshqarish qobiliyatida namoyon bo'ladi. U "nafsni tarbiya qilish"ni insonni o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishga, manfaat va adolat o'rtasidagi muvozanatni topishga o'rgatadigan jarayon deb biladi [10].

Mutafakkir fikricha, adolat barcha fazilatlarning markazida turadi. Agar jamiyatda adolat tamoyili buzilsa, insonlarning o'zaro ishonchi ham yemiriladi. Korrupsiya esa aynan shu ishonchni zaiflashtirib, jamiyatda befarqlik va axloqiy beqarorlik muhitini kuchaytiradi [11]. Shu bois Ibn Sino adolatni inson va davlat o'rtasidagi eng muhim axloqiy rishta sifatida ko'radi.

Ibn Sino ta'limotida halollik, vijdon, sabr-toqat, mehnatsevarlik kabi qadriyatlar insonning "ichki qonuni" sifatida talqin etiladi. Bu qadriyatlar insonni o'z nafsidan yuksaltiradi, uni jamiyat uchun mas'ul subyektga aylantiradi. Shu nuqtayi nazardan, korrupsiyaga qarshi kurashda asosiy e'tibor tashqi jazoga emas, balki insonning ichki axloqiy dunyosini sog'lomlashtirishga qaratilishi kerak.

Ibn Sinoning bu qarashlari bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Korrupsiyaga qarshi kurashning muvaffaqiyati faqat qonuniy mexanizmlarga emas, balki insonning ichki axloqiy tayanchiga, ya'ni vijdon, halollik va fuqarolik mas'uliyatining kuchayishiga bog'liqdir. Shaxsning o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his etishi, jamiyat oldidagi burchini anglash, bu korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali ma'naviy vositasidir.

Mas'uliyat bu insonning o'z xatti-harakatlari, qaror va tanlovlari uchun javobgarlikni his etishidir. Falsafada u erkinlik bilan chambarchas bog'liq tushunchadir. Inson erkin bo'lishi bilan birga, axloqiy me'yorlarga sodiq qolishi zarur.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashda aynan shu axloqiy javobgarlikni tiklash jamiyatning ma'naviy yangilanishi uchun zarur asos bo'lib qolmoqda.

Xulosa. O'zbekiston so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. "Halollik milliy harakati", "Korrupsiyasiz soha" tashabbuslari, shuningdek, ta'lim tizimida halollik fanining joriy etilishi axloqiy qadriyatlar asosida jamiyatni yangilashga xizmat qilmoqda. Bu jarayonlarda asosiy e'tibor inson ongini o'zgartirish, ya'ni shaxsning mas'uliyatini uyg'otishga qaratilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat huquqiy, balki falsafiy va ma'naviy masaladir. Shaxs mas'uliyati va axloqiy qadriyatlarning uyg'unligi jamiyat taraqqiyotining poydevori bo'lib xizmat qiladi. Falsafiy nuqtai nazardan, korrupsiya insonning o'z mohiyatidan axloqiy javobgarlikdan chekinishidir. Shuning uchun korrupsiyani yengish uchun insonning ichki dunyosini, ma'naviyatini, qadriyatlarini tiklash zarur.

Mamlakatimiz tajribasi shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurashda shaxsning ma'naviy yetukligi, axloqiy tarbiyasi va fuqarolik mas'uliyati asosiy o'rinni egallaydi. Bu esa ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan inson va jamiyat uyg'unligining eng muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-farmoni.

(2). Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Коррупцияга қарши Конвенцияси. https://lex.uz/docs/1461329

(3). Ўзбекистон Республикасининг "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги ЎРҚ-419-қонуни. 2017 йил 3 январь. https://lex.uz/docs/3088008?ONDATE=21.04.2021

(4). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–6155-qarori, 2020-yil 29-iyun.

(5). "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-farmoni, 11. 09.2023-yil.

(6). B.A.Aliyev, A.Muxtarov, T.O.Norov, N.N.Qodirov, J.K.Bayaliyev, A.Muzaffarov. "O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi strategiyasi". Toshkent, 2021, 262-bet.

(7). Ochilova B. Korrupsiya va ijtimoiy hayot (Keysstadi). Metodik ishlanma, Bilim sohasi 100000 – Ta'lim. Ta'lim sohasi 110000 – Ta'lim. Jizzax davlat pedagogika instituti. Jizzax, "Tahririy-nashriyot bo'limi", 2021, 72-bet.

(8). Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент, "Халқ мероси", 1993, 320-бет.

(9). Аликулов Ҳ. Абу Наср Форобийнинг ижтимоий-маънавий мероси. Тошкент,"Noshir", 2012, 112-bet.

(10). Ибн Сина. Избранные поизведения. Том 1, Душанбе, 1980.

(11). Абу Али Ибн Сина. Избранные философские произведения.-М.: Наука, 1980. -552 с.

(12). Ибн Сино. Ақлий илмлар қисмлари. ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти сақланаётган қўлёзма, инв.№ 2213/III

(13). Arendt H. [1993]. Responsibility and Judgment. New York, Schocken Books.

(14). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2023, 80-bet.

(15). Хайруллаев М.М. Форобий ва унинг фалсафий рисолалари. Тошкент, ЎзССРФА, 1963, 283-бет.

(16). Elliott, Kimberly Ann (1950). "Corruption as an international policy problem: overview and recommenddations" (PDF). Washington, DC: Institute for International Economics.

(17). Lawore B. Social Inequality in Nigeria: the Poor and the Rich. B.Lawore. Unilag Sociologist, Lagos, 1976/77, 4, p. 2–3.